

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2017 yil yanvar-noyabr holatiga

Davlat statistika qo'mitasiga 2017 yilning yanvar-noyabr holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **1971 ta** (o'tgan yilning shu davrida 1983 ta) murojaatlar kelib tushgan.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning **36,8 foizi (726 ta)** jismoniy shaxslar va **63,2 foizi (1245 ta)** yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.


Murojaatlarning asosiy qismi, ya'ni **1426 tasi (jamiga nisbatan 72,3 foiz)** – Toshkent shahridan va **147 tasi (7,4 foiz)** – Toshkent viloyatidan kelib tushgan.


Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha jami 15 ta shahar va tumanlarda sayyor shaxsiy qabullar o'tkazilgan.

Ushbu sayyor qabullarda **105 ta** jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlari ko'rib chiqilgan.

Murojaatlar (kelib tushishi bo'yicha)	Soni	Ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali	44	2,3
Davlat statistika qo'mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali	100	5,0
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali	198	10,0
Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali	246	12,0
To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar	1270	65,0
Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullari-dagi og'zaki murojaatlar	113	5,7

Soni – birlikda



**Ulushi—foizda**


Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)	Soni	Ulushi, %
Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarini taqdim etish	1052	53,4
Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, statistik kodlar berish	313	15,9
Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarni olish	228	11,6
Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish, Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish	81	4,1
Qo'mitaning topshiriqlari va so'rovnomalari javoban yuborilgan ma'lumotlar	47	2,4
Davlat interaktiv xizmatlarini rivojlantirish, veb-sahifani takomillashtirish, axborotlashtirish sohalarda xizmat ko'rsatish bo'yicha	42	2,1
Boshqa masalalarda kelib tushgan murojaatlar	208	10,5

**Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,

“Ishonch telefon”lari:

(71) 230-81-80/ 230-81-82

Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 230-81-81

Raisning virtual qabulxonasi—“[www.stat.uz](http://www.stat.uz)”

Pochta manzili - [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)

hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari “[my.gov.uz](http://my.gov.uz)” portal sahifalari orqali Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati qabuliga “Onlayn” tarzda yozilish hamda elektron shaklda yozma murojaat etishingiz mumkin.

**Davlat statistika qo'mitasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

**M.Normatov**  
(0371) 230-81-24